



OILA BYUDJETI VA IQTISODIY BARQARORLIKDA KASABA UYUSHMA TASHKILOTLARINING TUTGAN O'RNI: ANDIJON MISOLIDA

Ahmedov Abdulxay Toshtuxtayevich

Andijon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: ahmedov.edu1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila byudjetining shakllanishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kasaba uyushma tashkilotlarining tutgan o'rni tahlil qilingan. Andijon viloyati misolida kasaba uyushmalarining oilalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, turmush darajasini oshirish va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirishga doir faoliyati yoritilgan. Shuningdek, kasaba uyushmalari tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy chora tadbirlar, ayollarga ko'rsatiladigan yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari oila byudjeti va iqtisodiy barqarorlik bilan bog'liq jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Oila byudjeti, iqtisodiy barqarorlik, kasaba uyushmalari, ijtimoiy himoya, mehnat munosabatlari, daromad, bandlik, Andijon viloyati, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilaviy daromad.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda huquq va manfaatlarini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan tamoyil asosida, xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borayotgan keng ko'lamli ijtimoiy islohotlarni davom ettiramiz. Buning uchun birinchi navbatda aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish – biz uchun bosh vazifalardan biri bo'lib qoladi" deydi prezidentimiz.

Oila byudjeti va iqtisodiy barqarorlik masalalari bugungi kunda global iqtisodiy jarayonlar va bozor munosabatlarining murakkab sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Har bir oilaning daromad va xarajatlarini muvozanatlashgan holda rejalashtirish qobiliyati nafaqat oila farovonligining, balki butun jamiyatning iqtisodiy barqarorligining muhim ko'rsatkichidir. Oila byudjeti oilaning kundalik hayotidagi xarajatlarni, bolalarning ta'lim va sog'liqni saqlash ehtiyojlarini, uy-joy va boshqa zaruriy xarajatlarni qoplashga xizmat qiladi. Shu bilan birga oila byudjetining barqarorligi ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Kasaba uyushma tashkilotlari oila byudjeti va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda bevosita rol o'ynaydi. Ular ishchi-xizmatchilarning mehnat huquqlarini himoya qilish, ish haqlarining o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berish, ijtimoiy nafaqalar va yordam dasturlarini amalga oshirish orqali oilalarning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.⁴²² Ayniqsa, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga ko'rsatiladigan manzilli yordamlar, sanatoriy va dam olish yo'llanmalari ajratish kabi tadbirlar oilaning xarajatlarini kamaytirish va turmush darajasini oshirishga bevosita hissa qo'shadi.⁴²³ Oila byudjetining barqarorligi, shuningdek, oiladagi qaror qabul qilish jarayonlarini ham osonlashtiradi. Oilaning moliyaviy resurslari qanchalik barqaror bo'lsa, qaror qabul qilish jarayoni shunchalik samarali bo'ladi. Masalan, bolalarning ta'limi va kasbiy rivojlanishiga, sog'liqni saqlash xizmatlariga, uy-joy xarajatlariga sarflanadigan mablag'ni oldindan rejalashtirish imkoniyati paydo

⁴²² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (*Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).

⁴²³ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (*Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son).

bo'ladi. Shu jihatdan kasaba uyushma tashkilotlari faoliyati oilalarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Andijon viloyat kasaba uyushma tashkiloti tomonidan 2017-2019-yillar davomida ikki bosqichda 98 ta oilaga yangi uy-joy qurib berish, 555 ta oilaning uy-joyini ta'mirlash, 3478 ta oilaga maishiy texnika olib berish, 188 ta oilaning bir nafardan kasalmand va davolanishga muxtoj a'zosiga tibbiy yordam ko'rsatish ishlari amalga oshirildi. Tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan 573 nafar xotin-qizlarga 152 mlrd 287 mln so'm miqdorida kreditlar ajratilib, 2464 ta ish o'rni yaratildi. Shuningdek, 537 nafar og'ir ijtimoiy vaziyatdagi xotin-qizlarning uy sharoitida bandligini ta'minlash maqsadida 198 ta tikuv mashinasi, 287 ta elektro pech, 38 ta issiqxona, 14 ta qoramol va boshqa vositalar bilan ta'minlandilar.

Viloyatdagi xotin-qizlardan 1024 nafariga salomatligini tiklash uchun hamda 5194 nafariga maishiy sharoitlarini yaxshilash uchun moddiy yordam ajratildi. Shu orqali oilalarning daromad manbalari kengayadi, moliyaviy xavfsizlik kuchayadi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik mustahkamlandi.⁴²⁴ Bugungi kunda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning o'zgarishi kasaba uyushma tashkilotlarining rolini yanada oshirmoqda. Ular nafaqat mehnat munosabatlarini tartibga solish va huquqlarni himoya qilish bilan shug'ullanadi, balki oilalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, turmush darajasini oshirish va ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshiradi.⁴²⁵ Shu sababli kasaba uyushmalari faoliyatining samaradorligi oila byudjeti va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, oila byudjeti va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kasaba uyushma tashkilotlarining tutgan o'rni juda katta. Andijon viloyati misolida kasaba uyushmalari xotin-qizlarning ijtimoiy himoya, bandlik va daromadlarni barqarorlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni olib boradi. Shu orqali oilalarning moliyaviy holati yaxshilanadi, ularning turmush darajasi oshadi va jamiyatning iqtisodiy barqarorligi ta'minlanadi. Kelgusida kasaba uyushmalari faoliyatini yanada rivojlantirish oilalardagi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Kasaba uyushmalari to'g'risidagi Qonuni. (*Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2019-y., 03/19/588/4115-son*)
2. Rahmonov M. Kasaba uyushmalari tarixi va huquqiy maqomi. Toshkent: «Fan» nashriyoti - 2005.
3. Istoriya profsoyuznogo dvijeniya v Uzbekistane (2007). Toshkent: Fan.
4. World Bank (2010). Labor Market Reforms and Social Protection. Washington D.C.: World Bank.

⁴²⁴ World Bank (2010). Labor Market Reforms and Social Protection. Washington D.C.: World Bank.

⁴²⁵ Rahmonov M. Kasaba uyushmalari tarixi va huquqiy maqomi. Toshkent: «Fan» nashriyoti - 2005. 53-bet.